

Jamolova Xonzoda O‘rolboy qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya va buxgalteriya hisobi ” fakulteti talabasi

SUG‘URTA BOZORI MUTAXASISLARINI TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozori rivojlanishining asosiy omillaridan hisoblanmish mutaxasislarning malakasini oshirishning ahamiyatlilik darajasi va buning natijalari, manfaatli tomonlari xususida fikr va mulohazalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sug‘urta bozori, sug‘urta bozori professional ishtirokchilari, oily ta’lim islohatlari, sug‘urta bozori infratuzilmasi, potensial sug‘urtalanuvchilar, sug‘urta bozori kadrlar masalasi.

Kirish

Ma’lumki, har qanday bozorda sotuvchi va xaridor bo’ladi hamda ular o’rtasida tegishli tovarlar (xizmatlar) ayirboshlanadi. Xuddi shunday, sug‘urta bozorida ham sotuvchi (sug‘urtalovchi) va xaridor (potensial sug‘urtalanuvchi) ishtirok etadi. Bu erda potensial sug‘urtalanuvchi tushunchasini qanday izohlash mumkin, degan o’rinli savol tug’ilishi mumkin. Gap shundaki, basharti, potensial sug‘urtalanuvchini to’g’ridan to’g’ri sug‘urtananuvchi, deb atasak katta xatoga yo’l qo’yan bo’lamiz. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq, sug‘urta kompaniyalari bilan bevosita shartnoma tuzgan, fuqarolik salohiyatiga ega bo’lgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug‘urtalanuvchilar deyiladi. Aksincha, sug‘urta “mahsulotini” sotib olishga ehtiyoji bor, ammo hali sug‘urtalovchilar bilan tegishli sug‘urta munosabatlariga kirishmagan sug‘urtalanuvchilar deb ataladi. Endi, sug‘urtalovchilar haqida shaxslar gapiradigan potensial bo’lsak, sug‘urtalovchi - bu mamlakat xududida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan hamda sug‘urtalash o’zi uchun asosiy faoliyat turi hisoblangan yuridik shaxslardir. Ko’rinib turibdiki, sug‘urta kompaniyasi tegishli faoliyat yuritishi uchun vakolatli davlat organining litsenziyasiga ega bo’lishi va sug‘urtaga bog’liq bo’lmagan operatsiyalar bilan shug’ullanmasligi zarur. Sug‘urtalovchilar bozorga o’zlarini ishlab chiqargan o’ziga xos mahsuloti - sug‘urta xizmatini taklif etadilar. Ushbu xizmatlar yuzlab, minglab sug‘urta kompaniyalari tomonidan sotilishi mumkin. O’z-o’zidan, bu holat sug‘urta bozorida potensial mijozlarni jalg etish uchun sug‘urta kompaniyalari o’rtasida raqobatning kuchayishiga olib keladi va “mahsulot”ning sifatiga ijobjiy ta’sir ko’rsatadi. Eng asosiysi, potensial sug‘urtalanuvchi har tomonlama o’zining talabini qondiradigan “mahsulot”ga ega bo’ladi. Bayon etilganlar quruq gap emas, balki bugungi kunda iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlar bozorida ruy berayotgan oddiy haqiqatdir. Sug‘urta bozori va uning sub’ektlari .Sug‘urta kompaniyalari .Sug‘urta kompaniyasi o’z mahsulotini bozorda sotar ekan, zimmasiga katta mas’uliyat olganligini unutmasligi kerak. Chunki, sug‘urtalovchi ozgina sug‘urta mukofoti evaziga yirik mikdordagi riskni qabul qilib oladi va sug‘urta hodisasi ruy berganda zimmasidagi sug‘urta qoplamasini to’lashi shart. Shu o’rinda, biz sug‘urta kompaniyasiga murojaat qilishni istagan yoki muayyan sug‘urta xizmatiga ehtiyoj sezgan shaxslarga sug‘urta shartnomasini tuzishdan oldin sug‘urta kompaniyasining moliyaviy axvoli, balansi bilan albatta tanishib chiqishlarini maslahat qilamiz. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshqa tovarlar va xizmatlar kabi, sug‘urta xizmatining ham bahosi talab va taklif asosida paydo bo’ladi hamda bu baho o’zining pastki va yuqori chegaralariga ega. Sug‘urta tushumlarining miqdori sug‘urta to’lovleri va sug‘urta tashkilotlari xarajatlari miqdoriga teng bo’lishi sugurta baxosining pastki chegarasini bildiradi. Bunday sharoitda sug‘urta kompaniyasi asosiy faoliyatdan foyda ololmaydi. Ko’p hollarda sug‘urta bozoridagi keskin raqobat, sug‘urta tashkilotlarining potensial mijozlarni jalg etish maqsadida tarif stavkalarini kamaytirishga majbur etadi. Chet mamlakatlarda, sug‘urtalovchilar sug‘urta faoliyatidan zarar ko’rganda, bu

zarar investitsiyadan keladigan daromad hisobidan qoplanadi. Sug'urta xizmati bahosining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining miqdori bilan aniqlanadi. Sug'urta xizmatining ma'lum bir turiga etarli darajada talab mavjud bo'lganda, sug'urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada saqlab turishi mumkin. Lekin, vaqt o'tishi bilan bozorda sug'urta xizmati ko'rsatish turlarining ko'payishi bilan, o'z-o'zidan tarif stavkalari kamayadi. Bu faoliyatlarning qanchalik samarali va manfaatli ekanligi sug'urta bozorining mutaxasislariga bog'liq ravishda boradi[1].

Tatqiqod metodologiyasi

Mazkur ilmiy maqolada sug'urta bozorida sug'urta mutaxasislarining faoliyatini rivojlantirish borasida jahon tajribasiga tayangan holda O'zbekistonda ham uni kengaytirish, bundan mamlakatimiz iqtisodiyotiga ko'rildigan manfaatlarni, foyda va afzalliklarni qolaversa bu yo'ldagi qiyinchilik, kutilishi mumkin bo'lgan muammolar haqida fikr mulohazalar yuritish uchun vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida empirik tadqiqotni kuzatish, induksiya, deduksiya, jamlash va ma'lumotlar manbalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharxi

Sug'urtalovchi har qanday sug'urta bozorida, jumladan, hududiy sug'urta xizmatlari bozorida ham asosiy subyekt hisoblanadi. Sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning nomlanishi turli adabiyotlarda turlicha nomlanadi. Dastlabki paydo bo'lgan sug'urta tashkilotlari sug'urta jamiyati deb atalgan. Keyinchalik, sug'urta tashkiloti, sug'urta kompaniyasi va sug'urtalovchi nomlari shakllandi. Sug'urta tashkiloti, sug'urta kompaniyasi, sug'urtalovchi degan atamalar bir xil ma'noni anglatishini yoddan chiqarmaslik zarur. Mavjud ilmiy iqtisodiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qonunchilik hujjatlarida ko'proq «Sug'urtalovchi» degan tushuncha qo'llanilsa, o'quv va ilmiy adabiyotlarda «sug'urta tashkiloti», «sug'urta kompaniyasi» degan atamalar ko'p qo'llaniladi. Masalan, S.V.Ermakov, N.B.Ermakovna muallifligida nashr etilgan «Страхование» o'quv qo'llanmasida «Sug'urta kompaniyasi» degan tushuncha ishlatilgan[2].

Sug'urta bozorining jadal rivojlanishi, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyojning yil sayin oshib borishi tufayli bozorning sug'urtalovchilar hamda ularning mijozlari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta faoliyati bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan sug'urta surveyerlari, aktuariylar kabi yangi muassasalarning ko'payishiga sabab bo'ldi.

Tahlil va natijalar

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorining professional ishtirokchilarini, sohaning yetuk mutaxasislarini yetishtirib berishda asosiy jonbozlik ko'rsatayotgan oily ta'lim muassasalarini Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamda Toshkent moliya instituti hisoblanishadi. Har ikkala oily ta'lim dargohida ham sug'urta kompaniyalarining maxsus laboratoriya xonalari tashkil etilgan bo'lib, ularda sug'urta yo'nalishlarida tahsil oladigan talabalarni soha bilan yanada yaqinroq va amaliy dasturlar bilan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda ahamiyatli bir vazifani o'z zimmasiga olgan. Xususan "**Sug'urta bozori mutaxasislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish**" shiori ostida O'zbekiston sug'urta agentlarini tayyorlash hamda sug'urta vositachilarining bozordagi ulushini oshirish maqsadida "KAPITAL SUG'URTA" aksiyadorlik jamiyati tomonidan qator ishlar olib borilmoqda. Kompaniya Toshkent moliya instituti bilan hamkorlikda "Innovatsion sug'urta markazi"ni ishga tushirdi. Huddi shunday KAFIL SUG'URTA kompaniyasi ham Toshkent davlat iqtisodiyot

universitetida malakali kadrlarni tayyorlash uchun mo‘ljallangan dastur bilan ish yuritishadi va har hafta kompaniyaning yetuk bilim va tajribali xodimlari tomonidan amaliy darslar o‘tiladi. Bir yilda bir marotaba talabalarni moddiy qo‘llab quvvatlash hamda bilimli talabalarni saralab olish maqasadida “Grant” tanlovi o‘tkaziladi[3].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) Toshkent moliya instituti va O‘zbekiston sug‘urta bozori ishtirokchilari uyushmasi bilan hamkorlikda sug‘urta sohasida mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan o‘quv markazini ochish tashabbusi bilan chiqdi. O‘quv markazining rasmiy ochilish marosimi 2023-yil 14-noyabr kuni BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi doimiy vakili o‘rinbosari janob Anas Fayyad Karman, Toshkent moliya instituti rektori janob Teshabayev To‘lqin Zakirovich va O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi Kengashi raisi janob Xalilov Oybek Nasirovich ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, marosimda O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta kompaniyalari, O‘zbekiston oliv ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari vakillariishtirok etdi[4].

Shuningdek, sug‘urta bozoridagi kadrlar masalasi bilan bog‘liq muammolarni yechish, avvalo bu sohada oily ta’lim muassasalaridagi talabalar ko‘lamni kengaytirish maqsadida prezidentimiz qarori bilan ushbu yo‘nalishda o‘qishni xohlovchi talabalarni suhbat asosida o‘qishga qabul qilish ko‘zda tutilgan[5].

Bu borada ilg‘or mamlakatlar tajribasini ko‘radigan bo‘lsak, sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi sug‘urta agenti bizning mamlakatimizda ixtiyoriy tarzda ishga qabul qilinuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs bo‘lsa, AQSH da u litsenziyaga ega, maxsus test topshiruvchi hamda ba’zi bir talablarga javob beruvchi shaxs hisoblanadi. Agentlar bir qarashda qiyin bo‘lmagan ishdek tuyilsada aslida, ular bozorda juda katta ma’suliyatni bo‘yinlariga olishadi. Mijozlarni nafaqat sug‘urtaga jalb qilish balki, ummumiy hisobda ularning sohaga bo‘lgan ishonchlarini ham qaytarish bilan bog‘liqdir[6].

Xulosa va takliflar

Sug‘urta bozori mutaxasislari , professional ishtirokchilari bu bozorning asosini tashkil etib, ularsiz bozor tushunchasi ham mavjud bo‘lmaydi. Negaki, sug‘urta bozori mavjudligini, faoliyatning barqarorligini, sug‘urta munosabatlari davomiyligini ta’minlab turishda aynan ushbu mutaxasislarning xizmati bo‘lib, bozorning ham va albatta sug‘urta kompaniyalarining rivojlanishi ularsiz bo‘lmaydi. Shunday ekan sug‘urta bozori mutaxasislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va bozorni salohiyatli kadrlar bilan ta’minalash juda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. <https://docx.uz/document/sug-urta-bozori-uning-tarkibiy-tuzilishi-va-ularga-umumiyy-tavsifnomasi-f2d21893?lang=uz>
2. O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni.
3. <https://t.me/tsueuzofficial>
4. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/bmttd-sugurta-bozori-ishtirokchilari-mutaxassislarining-malakasini-oshirish-oquv-markazi-ochilishini-qollab-quvvatladi>
5. <https://lex.uz/docs/-4459802>
6. <https://www.sciencedirect.com/>